O‘ZBEK AN’ANAVIY GILAMDO‘ZLIGIDA JULXIRS: TARIXIY-ETNOGRAFIK XUSUSIYATLARI VA TEXNOLOGIK AN’ANALARI

Berdiyorov Miraziz Hamdulla o‘g‘li
TDSHU, Antropologiya va etnologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: t.f.f.d. (PhD) Turdixo‘jayeva Mahliyo Muqimovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek an’anaviy gilamdo‘zligining o‘ziga xos namunalaridan biri bo‘lgan “julxirs”ning tarixiy-etnografik xususiyatlari, kelib chiqishi, tarqalish hududlari, bezak tizimi va tayyorlash texnologiyasi tahlil qilinadi. Julxirsning Shumer, Baqtriya va Sug‘d madaniyatlari bilan bog‘liq tarixiy ildizlari, shuningdek, uning Samarqand, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlaridagi mahalliy xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqotda gilam naqshlaridagi totemik, tamg‘aviy, geometrik va kosmogonik belgilar hamda ularning ramziy mazmuni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, julxirsning an’anaviy to‘qish usullari, jun xomashyosi, ranglar uyg‘unligi va sumax texnikasi bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilinadi. Muzey kolleksiyalari va ilmiy manbalar asosida julxirs o‘zbek xalqining qadimiy amaliy san’ati va moddiy-madaniy merosining muhim namunasi ekanligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Julxirs, o‘zbek gilamdo‘zligi, gilamchilik, uzun patli gilam, ayiq terisi, kelle, ketebe, sumax.*

Аннотация. *В статье анализируются историко-этнографические особенности, происхождение, районы распространения, система орнамента и технология изготовления джульхирса — своеобразного образца традиционного узбекского ковроткачества. Рассматриваются его исторические связи с культурами Шумера, Бактрии и Согда, а также региональные особенности Самаркандской, Джизакской, Навоийской, Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей. Изучены тотемные, тамговые, геометрические и космогонические знаки орнамента, традиционные способы ткачества, шерстяное сырьё, цветовые сочетания и связь с техникой сумах. На основе музейных собраний и научных источников показано значение джульхирса для материально-культурного наследия узбекского народа.*

Ключевые слова: *джульхирс, узбекское ковроткачество, ковроделие, длинноворсовый ковёр, медвежья шкура, келле, кетебе, сумах.*

Abstract: *This article analyzes the historical and ethnographic characteristics, origins, areas of distribution, decorative system, and production technology of*

Julkhirs, one of the distinctive examples of traditional Uzbek carpet weaving. It examines the historical roots of Julkhirs associated with the cultures of Sumer, Bactria, and Sogdiana, as well as its regional characteristics in Samarkand, Jizzakh, Navaiy, Kashkadarya and Surkhandarya. The study considers the totemic, tamga-related, geometric, and cosmogonic symbols found in carpet ornaments and explores their symbolic meanings. Particular attention is also paid to traditional weaving techniques, wool as the primary raw material, color combinations, and aspects related to the Sumakh technique. Based on museum collections and scholarly sources, the study demonstrates that Julkhirs represents an important example of the ancient applied art and material cultural heritage of the Uzbek people.

Keywords: *Julxirs, Uzbek carpet weaving, carpet making, long-pile carpet, bearskin, kelle, ketebe, sumakh.*

Аннотация: *В статье анализируются историко-этнографические особенности, происхождение, ареал распространения, декоративная система и технология изготовления джульхирса одного из самобытных образцов традиционного узбекского ковроделия. Рассматриваются исторические корни джульхирса, связанные с культурами Шумера, Бактрии и Согда, а также его региональные особенности, характерные для Самаркандской, Джизакской, Навоийской (Нуратинской) и Сурхандарьинской областей. Особое внимание уделяется тотемическим, тамговым, геометрическим и космогоническим символам, представленным в орнаментации ковров, а также их символическому значению. Кроме того, исследуются традиционные способы изготовления джульхирса, использование шерсти в качестве основного сырья, особенности цветовой гаммы и техника сумах. На основе материалов музейных коллекций и научных источников обосновывается, что джульхирс является важным образцом древнего прикладного искусства и материально-культурного наследия узбекского народа.*

Ключевые слова: *Джульхирс, узбекское ковроделие, ковроткачество, длинноворсовый ковёр, медвежья шкура, келле, кетебе, сумах.*

O‘zbek gilamdo‘zligi tarkibida o‘zining tuzilishi, tayyorlanish texnologiyasi, tashqi ko‘rinishi va funksional xususiyatlari bilan ajralib turadigan “***julxirs”*** alohida e’tiborga loyiqdir. Julxirsning o‘ziga xosligi, avvalo, uning patli tuzilishi va tayyorlash jarayonida qo‘llaniladigan an’anaviy texnologik usullar bilan belgilanadi.

Arxeologik manbalar va etnografik ekspeditsiyalar davomida gilamdo‘zlikda ***“ayiq terisi”***[53] boshqa nomlarda esa ***“julvarak”***[54] (arabcha: jul – jun, jun mato), ***“pati zulvarak”***[55] (pati – tovuq patlari) shuningdek, ***“zul”***[56] – egalik qilish, Nurota o‘zbeklar tilida esa ***“Xirs ayiq”***[57] degan ma’nonlarda keladi.

Markaziy Osiyoda **“ayiq terisi”** nomi bilan bog‘liq gilamlarning kelib chiqishi haqida turli rivoyat va qarashlar mavjud. “Ayrim rivoyatlarda ayiq terisidan gilam to‘quvchi ba’zi kishilar to‘qish jarayonida gallyutsinatsiyalarni boshdan kechirganlari, ularning tartibsiz va o‘ziga xos to‘qish uslubi esa uzoq vaqt davomida gallyutsinatsiyalarni keltirib chiqaruvchi giyohvand moddalarni iste’mol qilish bilan bog‘liq bo‘lganligi ta’kidlanadi.”[58]



O‘zbekiston hududidan topilgan julxirslar chapdan o‘nga.

Zomin tumani XX asr boshlari, Samarqand viloyati XIX asr, Shahrisabz XX asr boshlari.

O‘zbekistonning Samarqand (Urgut tumani), Jizzax (G‘allaorol, Zomin va Baxmal tumanlari), Navoiy (Nurota tumani) Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida hozir ham ushbu turdagi gilamlarni uchratish mumkin.

Julxirslar, ayniqsa Samarqand va Surxondaryo hududlariga xos namunalarning, bezaklarining katta qismi ko‘chmanchi dasht madaniyati bilan bog‘liq. Ularda yarim

[53] O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. *Ijodiyotda musiqiy nomoddiy madaniy meros:* qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi. Tuzuvchi: prof. U.G. Toshmatov. – Toshkent, 2023. – B. 61.

[54] https://primitiverug.com/journal/bearskin-rugs-of-central-asia

[55] Moshkova, V. G. Carpets of the People of Central Asia (George O. Bannon, Arizona Lithographers Tucson, Arizona, 1996) 331 p.

[56] Moshkova, V. G. Carpets of the People of Central Asia (George O. Bannon, Arizona Lithographers Tucson, Arizona, 1996) 121 p.

[57] Moshkova, V. G. Carpets of the People of Central Asia (George O. Bannon, Arizona Lithographers Tucson, Arizona, 1996) 333 p.

[58] Tanghe, P. Wouters, H. Van Tongerloo, A. Pollet, L. Boenders, F. Beaulieux, D. Djulchir Tissus de defense et de protection (Kredietbank, Bruxelles, 1995) 138 p.

ko‘chmanchi xalqlarning barchasiga xos bo‘lgan **“dasht”** ramzlari, totemik va tamg‘aviy belgilar ustunlik qiladi.

V.G. Moshkova julxirsni patli gilamlarning eng qadimgi turi deb hisoblagan va u “nafaqat O‘zbekistonda gilamchilik san’ati rivojining dastlabki bosqichlaridan birini, balki umuman patli gilamdo‘zlik tarixini ham yoritib beradi”[59], deb ta’kidlagan. Julixurs gilamlarining to‘qilish texnikasi ham boshqa gilamlardan farq qilgan. Julixirs gilamlarini sumax qismi patli narsalar orqali tugun qilingan.



Julxirs. O‘zbeklar. Samarqand viloyati, XIX asr. **Dennis Markwand kolleksiyasi, AQSh.**[60]



Sumax.[61] turlarining jadvali: 1)sanama sumax 2) oddiy sumax; 3) diagonal sumax; 4) aylantirma sumax; 5) kesishma sumax.

V.G. Moshkova julxirsga o‘xshagan gilamlarni Shummerda dastlabki topilgan degan tahminlarni ilgari suradi. Shunga o‘xshash uzun patli to‘shamalar bronza davridagi Baqtriya va Marg‘iyona hududlarida ham topilgan. Bu holat shuni ko‘rsatadiki ushbu davlatlar o‘rtasida madaniy-tarixiy aloqalar mavjudligini tasdiqlaydi.

E.Г. Царева o‘zining “Ковроделие арабов южных районов узбекистана. конец XIX – начало XXI в.” *(Janubiy o‘zbekiston hududlaridagi arablarning gilamdo‘zligi XIX asr oxiri – XXI asr boshlari)* nomli asarida “Tojikiston arablarida hozirgi kungacha uzun patli “julxirs” gilamlarini tayyorlash an’anasi saqlanib qolganligi va ularning tayyorlanish texnologiyasi va badiiy qiyofasida Arabiston

[59] O‘zbekiston gilamdo‘zligi: asrlarga tengdosh an’ana XIV. Визна ворсовых узлов. Carpet Making of Uzbekistan: A Tradition Preserved Through Centuries XIV. Ковроделие Узбекистана: традиция, сохраненная в XIV. – Toshkent: “Silk Road Media”, “East Star Media”, 2020. – B. 326.

[60] O‘zbekiston gilamdo‘zligi: asrlarga tengdosh an’ana XIV. Визна ворсовых узлов. Carpet Making of Uzbekistan: A Tradition Preserved Through Centuries XIV. Ковроделие Узбекистана: традиция, сохраненная в XIV. – Toshkent: “Silk Road Media”, “East Star Media”, 2020. – B. 336.

[61] **Sumax** ***(сумах)*** — gilamchilikda qo‘llaniladigan tugunsiz, o‘ramali to‘qish usullaridan biri. Unda rangli iplar gilamning asosiy iplarini ma’lum tartibda o‘rab yoki aylantirib biriktiriladi. Natijada gilam yuzasida naqsh va relyefli tekstura hosil bo‘ladi.

yarimorolining shimoliy qismida yashovchi badaviylarning gilamchilik mahsulotlari bilan ko‘plab o‘xshashliklar kuzatilgan”[62]ligini qayd etadi.



“Naqshi gisht”[63] bir yarusli tugunlash texnikasida tayyorlangan polga to‘shaladigan julxirs gilami. Janubiy O‘zbekiston arablari, 1930–1940-yillar. **Toshkent Davlat amaliy san’at muzeyi. 2002-yil.**

“Naqshi gisht” deb nomlanuvchi bir yarusli tugunlash texnikasida tayyorlangan gilamlar Tibetda ham keng qo‘llanilgan. Taxminlarga ko‘ra, ular ushbu texnikani davrlar almashinuvi arafasida saklardan o‘zlashtirganlar.



“Naqshi gisht” naqshli, uzun tukli gilam to‘qishga mo‘ljallangan gorizontal dastgoh. Badaviylar. Negev cho‘li. M. Vasilenko surati, 2010-yil.



Xurjun tayyorlayotgan to‘quvchi ayol. Arablar. O‘zbekiston janubi, Qashqadaryo viloyati, Jeynov qishlog‘i. 2004-yil.

[62] Царева Е.Г. Ковроделие арабов южных районов Узбекистана. Конец XIX – начало XXI в. (по коллекциям МАЭ и РЭМ). – Санкт-Петербург: МАЭ РАН, 2004. – Б. 277.
[63] Царева Е.Г. Ковроделие арабов южных районов Узбекистана. Конец XIX – начало XXI в. (по коллекциям МАЭ и РЭМ). – Санкт-Петербург: МАЭ РАН, 2004. – Б. 312.

Е.Г. Царева qo‘shimcha qilib yana shuni ma’lum qiladiki “Afsuski, na Rossiya etnografiya muzeyi (REM) kolleksiyasida, na Antropologiya va etnografiya muzeyi (MAE) to‘plamida Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda ushbu etnos *(Markaziy Osiyo arablari)* yashaydigan barcha hududlar arablariga xos an’anaviy buyum hisoblangan, arablar tomonidan tayyorlangan deb aniq identifikatsiya qilinadigan tikma uzun patli “julxirs” gilamlari mavjud emas.”[64]

Julxirslarning klassik namunasi Samarqand viloyatiga xos uzun patli gilamlar hisoblanadi. Samarqand viloyatiga xos julixirslar asosan Sug‘d madaniyati ta’sirini saqlab qolgani e’tiborga loyiqdir. Qo‘shimcha bezak elementlari sifatida turli xil geometrik naqshlar xochlar, **“tumorcha”**[65] deb ataluvchi uchburchaklar, to‘g‘ri to‘rtburchaklar, tishsimon chiziqlar (zigzag) hamda **“kelle”**[66] deb ataluvchi o‘simliksimon motivlar ishlatilgan. Ularning ayrimlarida tamg‘aviy mazmunni ko‘rish mumkin.

Eron gilamlariga taqlid qilishga urinishlar esa ancha ehtiyotkorona bo‘lgan. Chunki Eron gilamlariga xos bo‘lgan nafis o‘simliksimon-gulli uslub va silliq, egiluvchan chiziqlar julxirs tayyorlash texnologiyasida to‘liq ifodalanishi texnik jihatdan imkonsiz edi.

Shunga qaramay, hunarmand ayollar ayrim naqshlarni, xususan, “ketebe” zanjirini o‘zlashtirganlar. Bunday zanjirlar ko‘pincha Eron saroy gilamlarining hoshiyalarini bezashda qo‘llanilgan. Zanjirlar ichida sodda gulli butalar tasvirlangan bo‘lishi mumkin.

Julxirslarning rang xususiyatlari haqida to‘xtaladigan bolsak odatda, tabiiy va to‘q ranglar ustunlik qilganini ko’ rishimiz mumkin. Biroq anilin bo‘yoqlarining tarqalishi bilan ranglar gammasi yanada yorqin, ba’zan esa juda keskin va ko‘zga tashlanadigan tuslarga ega bo‘la boshladi. Bu holat, ayniqsa, Nurota gilamlariga xosdir. Umuman olganda, julxirs o‘zbek patli to‘qimachilik san’atining autentik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan noyob madaniy yodgorlik hisoblanadi. Uning kelib chiqishini Sharqning eng qadimgi sivilizatsiyalari Shumer va Baqtriya bilan bog‘lash mumkin.

Julxirs tayyorlash texnologiyasi esa tor enli dastgohda palas to‘qish texnikasidan foydalanishdan keng enli dastgohda klassik patli gilam to‘qish usuliga o‘tishning o‘ziga xos oraliq shakli sifatida qaraladi.

O‘zbek an’anaviy gilamdo‘zligi tarixida julxirs o‘zining o‘ziga xos texnologik, badiiy va funksional xususiyatlari bilan ajralib turadigan noyob gilam turlaridan biridir. Tadqiqot davomida julxirsning shakllanishi va rivojlanishi

[64] Царева Е.Г. Ковроделие арабов южных районов Узбекистана. Конец XIX – начало XXI в. (по коллекциям МАЭ и РЭМ). – Санкт-Петербург: МАЭ РАН, 2004. – Б. 311.
[65] Мошкова В.Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX – начала XX вв. [Часть 1]. Ташкент., 1970. – Б. 124.
[66] Мошкова В.Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX – начала XX вв. [Часть 1]. Ташкент., 1970. – Б. 126.

O‘zbekiston hududidagi qadimgi to‘qimachilik an’analari, xususan, Shumer, Baqtriya va Sug‘d madaniyatlari bilan muayyan tarixiy-madaniy aloqadorlikda rivojlanganligi aniqlandi. Shu jihatdan julxirs nafaqat maishiy ehtiyoj uchun ishlatilgan buyum, balki xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va an’anaviy dunyoqarashini mujassamlashtirgan moddiy-madaniy meros namunasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Julxirsning Samarqand, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo hududlarida tarqalgan namunalari o‘zaro umumiy jihatlar bilan bir qatorda, mahalliy texnologik va badiiy xususiyatlari bilan ham farqlanadi. Ayniqsa, Samarqand julxirslarida Sug‘d madaniyati ta’siri, qadimiy geometrik, totemik va tamg‘aviy belgilar yaqqol namoyon bo‘ladi. Romb, xoch, uchburchak, tishsimon chiziqlar, sakkiz qirrali yulduz, shoxsimon va o‘simliksimon motivlarning qo‘llanilishi ushbu gilamlarning qadimiy ramziy qatlamlarini ochib beradi. Mazkur naqshlar dastlabki davrlarda himoya, hosildorlik, farovonlik va ezgu tilaklarni ifodalovchi ramzlar vazifasini bajargan.

Tadqiqot natijalari julxirs tayyorlash texnologiyasining o‘ziga xosligini ham ko‘rsatadi. Uzun patli tuzilma, qo‘llanilgan jun xomashyosi, tugunlash usullari va sumax texnikasi uning boshqa gilam turlaridan farqlanuvchi asosiy belgilaridandir. Tor enli dastgohlarda to‘qilib, keyinchalik alohida qismlarning bir-biriga tikilishi Samarqand julxirslarining muhim texnologik xususiyatlaridan biri bo‘lgan. Bu holat julxirs texnologiyasini silliq to‘qilgan palaslardan klassik patli gilamdo‘zlikka o‘tish jarayonidagi muhim oraliq shakllardan biri sifatida baholash imkonini beradi.

Shuningdek, julxirs bezaklarida boshqa madaniy an’analar bilan o‘zaro ta’sir ham kuzatiladi. Sug‘d to‘qimachilik san’ati, Eron gilamlari, suzani kashtachiligi va abrli matolarning ayrim badiiy motivlari julxirs ornamentikasining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgani. Biroq bu ta’sirlar mahalliy an’analar bilan uyg‘unlashib, o‘ziga xos milliy badiiy qiyofaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Umuman, julxirs o‘zbek xalqining ko‘p asrlik gilamdo‘zlik tajribasi, badiiy tafakkuri va etnomadaniy xotirasini o‘zida mujassamlashtirgan noyob madaniy meros namunasidir. Uning tarixiy, etnografik va texnologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, muzey kolleksiyalaridagi namunalarni ilmiy jihatdan hujjatlashtirish va an’anaviy tayyorlash usullarini qayta tiklash bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Julxirs an’anasini tadqiq etish va ommalashtirish o‘zbek xalqining an’anaviy hunarmandchilik merosini asrab-avaylash hamda kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Царева Е.Г. Ковроделие арабов южных районов Узбекистана. Конец XIX – начало XXI в. (по коллекциям МАЭ и РЭМ). – Санкт-Петербург: МАЭ РАН, 2004.

2. Moshkova, V. G. *Carpets of the People of Central Asia* (George O. Bannon, Arizona Lithographers Tucson, Arizona) 1996.

3. Tanghe, P. Wouters, H. Van Tongerloo, A. Pollet, L. Boenders, F. Beaulieux, D. Djulchir. *Tissus de defense et de protection* (Kredietbank, Bruxelles, 1995.

4. *O‘zbekiston gilamdo‘zligi: asrlarga tengdosh an’ana XIV. Визна ворсовых узлов. Carpet Making of Uzbekistan: A Tradition Preserved Through Centuries XIV. Ковроделие Узбекистана: традиция, сохраненная в XIV.* – Toshkent: “Silk Road Media”, “East Star Media”, 2020.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. *Ijodiyotda musiqiy nomoddiy madaniy meros: qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi.* Tuzuvchi: prof. U.G. Toshmatov. – Toshkent, 2023.

6. Мошкова В.Г. *Ковры народов Средней Азии конца XIX - начала XX вв*. [Часть 1]. Ташкент, 1970.